

YOSHLARNING BADIY ASARLARNI O‘QISHGA QIZIQISHINI OSHIRISHDA TURLI PEDAGOGIK USULLARDAN FOYDALANISH

Djumayeva Baxtiniso Turakulovna

Termiz davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti,

TDMAU akademik litseyi o‘qituvchisi

Annotatsiya: badiiy asarlarning yosh avlodni tarbiyalashda va xalqning o‘zligini anglashida muhim ahamiyat kasb etishi hech kimga sir emas. Bugungi kun yoshlarining adabiyotga bo‘lgan munosabati susayib borayotgani achinarli hol, albatta. O‘z-o‘zidan, bu holat ta’lim muassasalarida ona tili va adabiyot fanidan dars beradigan pedagoglar zimmasiga birmuncha vazifalar yuklaydi. Ular badiiy asarlarga oid darslarini qiziqarli tashkil qilishi, o‘quvchilarni kitobxonlikka da’vat etishi va badiiy adabiyotning insoniyat hayotidagi o‘rnini to‘g‘ri tushuntira bilishlari lozim.

Kalit so‘zlar: publitsistika, ssenariy, syujet, bloger

USE OF VARIOUS PEDAGOGICAL METHODS IN INCREASING YOUNG PEOPLE’S INTEREST IN READING ARTISTIC WORKS

Djumayeva Bakhtiniso Turakulovna

Master’s student of the Uzbek language and literature department of the Termez State Pedagogical Institute, teacher of the academic lyceum of the TDMAU

Annotation: It is no secret that works of art play an important role in educating the younger generation and in understanding the identity of the people. It is a pity that today's youth’s attitude towards literature is weakening. In itself, this situation imposes a number of tasks on educators who teach the native language and literature in educational institutions. They should organize their lessons on literary works in an interesting way, encourage students to read, and be able to correctly explain the role of literary works in human life.

Keywords: journalism, script, plot, blogger

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РАЗЛИЧНЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ИНТЕРЕСА МОЛОДЁЖИ К ЧТЕНИЮ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

Джумаева Бахтинисо Туракуловна

Магистрант кафедры узбекского языка и литературы Термезского
государственного педагогического института, преподаватель академического
лица при ТГМАУ

Аннотация: Не секрет, что произведения искусства играют важную роль в воспитании подрастающего поколения и помогают людям осознать свою идентичность. Действительно жаль, что отношение современной молодежи к литературе слабеет. Само по себе такое положение вещей возлагает ряд задач на учителей, преподающих родной язык и литературу в образовательных учреждениях. Они должны уметь интересно организовывать уроки по художественной литературе, побуждать учащихся к чтению и правильно объяснять место художественной литературы в жизни человека.

Ключевые слова: журналистика, сценарий, сюжет, блогер

Kirish

Yaqin tariximizda ijtimoiy tarmoqning hayotimizga jadal kirib kelishi natijisida zamondoshlarimizning kitob o'qishga bo'lgan munosabati salbiy tomonga o'zgargani hammamizga ayon haqiqat. Instagram, Telegram, You Tobe, Facebook, Tik Tok, Twitter kabi internet tarmoqlari ko'pchilik hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Bir nechta bloger¹larning internet saytlaridagi reklamalari natijasida xalqimizning yoppasiga shu kasbni egallashga bo'lgan intilishi kundan kunga ortib bordi (Hozirda ham bu holat davom etmoqda). Oqibatda xalqimiz ichidan minglab biznes, ijodkor, tadqiqotchi, siyosatchi, ta'lim, oshxona, tikuvchi blogerlar yetishib chiqdi. Albatta, ularning barchasini qoralash fikridan yiroqmiz. Ular orasida xalqimizga ma'naviy, madaniy ozuqa berayotgan o'nlab blog yuritayotganlar ham

¹ Bloger – o'z qarashlarini internetdagi ma'lum bir platformada doimiy ravishda e'lon qiladigan kishi

bor. Jumladan, huquqshunos bloger Xushnubek Xudoyberdiyev, alpinist bloger Davronbek Tojialiyev, sport sharhlovchisi Davron Fayziyev yoki jurnalistlar Aziza Qurbonova, Shahnoza Soatova kabilarning ijtimoiy tarmoqlardagi bloglarini bu borada namuna sifatida ko'rsatish mumkin. Zero, bloger Hamza Foziljonov ta'kidlagandek: "Grammatika, uslubshunoslik, HTML, SEO, dizayn va hatto psixologiya – yaxshi bloger bu sohalarning har biridan yaxshi bilimga ega bo'lishi lozim". [1] Shunday bo'lsa-da, o'rgimchak to'rining foydali jihatlari bilan birga zararlari ham borligi ko'p o'tmasdan yuzaga chiqa boshladi. Jamiyat a'zolarining savodsizlashuvi, ma'naviyatsizlik, madaniyatsizlikning avj olishi, ba'zi odamlarning internet saytlarida qo'pol, uyatsiz jummalarni hech tap tortmasdan yozishlari, behayo chiqishlari bilan ommaning g'ashiga tegishlari (Shu bilan mashhurlikka erishishni maqsad qilganlar ham borligiga nima deyishni bilmaysan kishi?!) fikrimizning dalilidir. Ayniqsa, ko'chalarda reklama bannerlarining xato yozuvlar bilan to'lib toshgani, hattoki teleekranlarda ham imloviy, uslubiy xatoliklarning bot-bot ko'zga tashlanishi ziyoli qatlamning g'ashiga tega boshladi. Deputatlar ham bu masalaga o'z munosabatini ochiqlashga kirishdi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Shu narsa aniqki, kitob mutolaasi odamzodni ezgulikka boshlovchi, jamiyat a'zolarida insoniylik sifatlarini shakllantiruvchi eng muhim vositalardan biridir. Bu borada so'nggi yillarda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar tahsinga sazovor. Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini e'tirof etish joiz. Turli yosh toifasidagi kitobxonlik tanlovlarining tashkil qilingani, davlat byudjetidan har yili shu kabi tanlovlarga mablag' ajratilayotgani, ayniqsa, Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan kitobxon yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ko'zni quvontirmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xalq kutubxonasining ochilish marosimidagi nutqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: "Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa, avvalo, insoniyat

tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda”². Shunga qaramasdan, yildan yilga badiiy asar o‘qiydigan shaxslar ozayib borayotgandek go‘yo. Bu holat esa ziyoli qatlamni o‘yga toldirishi tabiiy. Ushbu maqolada ayni shu muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlar haqida fikr yuritishga harakat qilamiz. Pedagoglar, avvalo, bu masalada qanday tadbirlarni amalga oshirish haqida bir to‘xtamga kelib olishlari muhim. Buning uchun tajribalar davomida sinalgan usullardan foydalanish mumkin.

Natijalar va muhokama

Men ushbu yo‘nalishda ish olib borar ekanman, auditoriyada kitobxonlik muhitini yaratish, muntazam badiiy asarlar mutolaasi bilan shug‘ullanishni o‘quvchilarning odat tusiga aylantirish maqsadida uchta guruhda tajriba olib bordim. Tajriba uchun quyidagi 8ta usulni asos qilib oldim:

- 1) dastlab kichik hajmli asarlarni o‘qitib, bolalarni kitob mutolaasiga ko‘niktirish;
- 2) bolalarning qiziqishlarini aniqlash va uni inobatga olish (shunga ko‘ra ularga o‘qish uchun badiiy asar tavsiya qilinadi);
- 3) o‘qituvchining dars jarayonida biron asarni obrazli o‘qib berishi;
- 4) asarlarni rollarga³ bo‘lib mutolaa qildirish;
- 5) mutolaa uchun tanlangan asarning eng qiziq joyidan parcha so‘zlab, o‘quvchilarga davomini keyingi darsda hikoya qilish topshirig‘ini berish;
- 6) muhim, ta’sirchan, hayotiy voqelikni asar syujetiga⁴ bog‘lash;
- 7) rag‘batlantirish usulidan foydalanish;
- 8) kitoblarning audiomatn⁵ formatini tinglash orqali o‘zlashtirish.

Yuqoridagi usullardan foydalanib auditoriyada kitobxonlik muhitini yaratishga harakat qilinganda ko‘zda tutilgan samaradorlikka erishilganini ta’kidlash lozim. Jumladan, Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti akademik litseyi o‘quvchilariga dars berish jarayonida quyidagi natijalarga erishildi:


² Sh.Mirziyoyevning Anqara shahridagi Xalq kutubxonasining ochilish marosimida so‘zlagan nutqidan. 20.02.2020

³ Yozuvchi tomonidan pyesa yoki ssenariyda yaratilgan obraz va shunga muvofiq aktyor tomonidan ijro etilgan obraz

⁴ Badiiy asarda, filmda voqea-hodisalar tasviri, bayonidagi izchillik va o‘zaro aloqa; badiiy asar mazmuni

⁵ Yozma matnning ovozli varianti

Akademik litseyning xorijiy tillar yoʻnalishi 106-guruh oʻquvchilari bilan ishlanganda yuqoridagilardan 1-,5-,6-,7-usul tanlab olindi. Ularga dastlab Oʻtkir Hoshimovning “Oʻzbek ishi”, “Yanga”, “Nega?” [2] hikoyalarini oʻqish topshirigʻi berilganda guruhdagi 24 nafar oʻquvchining 14tasi topshiriqni toʻliq bajardi. Keyingi haftada Pirmqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” [3] romanining dastlabki 1-qismini oʻqish, uni toʻliq bajarganlarga mukofot yutib olish imkoniyati berilishi eʼlon qilindi. Shunda ularning 6 nafari belgilangan muddatda vazifani bajardi. Keyingi safar “Yulduzli tunlar” romanining 2-faslidan Robiya qismati (Robiyaning oʻgʻirlab ketilishi, Tohirning ancha yillardan soʻng uni topgani) haqida qiziqarli parcha soʻzlab berildi va davomini oʻqish oʻquvchilarga havola qilindi. Shundan soʻng oʻquvchilarning 3 nafari bu vazifani oʻz vaqtida bajardi. Asarning 3-qismini oʻqish 6-usul asosida berilganda, oʻquvchilarning 2 nafari uni belgilangan muddatda toʻliq oʻqib chiqishdi. (Buni quyidagi diagrammada⁶ koʻrish mumkin)




Ushbu taʼlim dargohining 107-guruh oʻquvchilari bilan quyidagicha natijaga erishildi:

Bu guruh uchun 2-,4-,6-,7-usul tanlab olindi. 1-haftada Said Ahmadning “Jimjitlik” [4] romanini oʻqish, vazifani mukammal bajarganlarga mukofot berish haqida eʼlon berildi. Shunda 24 nafar oʻquvchining 14tasi topshiriqni


⁶ Turli miqdorlar oʻrtasidagi munosabatni ifodalovchi chizma, grafik tasvir

to'liq bajardi. Keyingi haftada o'quvchilarning ko'proq qaysi asarlarga qiziqishi haqida so'rovnoma o'tkazildi. Ularning aksariyati sarguzasht asarlarni yoqtirishi hisobga olinib Daniyel Defoning "Robinzon Kruzo" [5] asarini o'qish topshirig'i berildi. Bu vazifani o'quvchilarning 6 nafari to'liq bajarishiga erishildi. 4-usulning samaradorligini aniqlash maqsadida Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" [6] romanidagi Anvar va Xudoyorxon dialogi dars jarayonida aktyorlik qobiliyati bor o'quvchilar tomonidan rolga bo'lib o'qildi va bunda asarning qolgan qismini 3 nafar bola mukammal bajardi. Ushbu asarning so'nggi qismi 6-usul asosida topshiriq sifatida berilganda 2 o'quvchi vazifani o'z vaqtida uddaladi. (Quyidagi diagrammaga qarang)



Mazkur tajriba akademik litseyning 204-guruhida olib borilganda esa yuqoridagilardan 2-,4-,5-,8-usul sinovdan o'tkazildi. O'quvchilarga O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" [7] romanining O'zbekiston xalq artisti Afzal Rafiqov ijrosidagi audiomatni tinglash tavsiya qilinganda guruhdagi 22 nafar o'quvchidan 13tasi topshiriqni o'z vaqtida bajardi. Keyingi haftada a'zolarining qiziqishini aniqlash uchun so'rovnoma o'tkazildi, ularning aksariyati tibbiyot sohasiga qiziqish bildirgani sababli Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo" [8] asarini (mashhur tib olimi Ibn Sino haqida voqelar yoritilgan) o'qish topshirig'i berildi.

Bunda o‘quvchilarning 5 nafari vazifani o‘z vaqtida uddaladi. 5-usulni sinovdan o‘tkazish uchun Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” [9] romanida Otabekning Homid boshchiligidagi jinoiy to‘daning Dushanba kunga mo‘ljallangan rejasini eshitib qolgani so‘zlab berildi va asarning qolgan qismini o‘qib kelish uy vazifasi sifatida belgilandi, bunda berilgan topshiriqni a‘zolarining 2 nafari o‘z vaqtida bajardi. 3-usulni tajribadan o‘tkazish uchun o‘qituvchi O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” [10] romanidan parcha (Rustamning Temur vafotidan so‘ng achchiq ustida jangga kirib, keyinchalik bundan qattiq afsuslangani) mutolaa qilindi va voqealar davomini o‘qib kelish vazifasi topshirildi. Bu safar o‘quvchilarning 1 nafari topshiriqni o‘z vaqtida uddaladi. (Quyidagi diagrammaga e‘tibor qarating)



Xulosa

Yuqoridagi tajribalardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, bolalarning qiziqishi aniqlanib shunga ko‘ra asar tavsiya qilinganda, rag‘batlantirilganda, kichik hajmli asarlar o‘qish topshirig‘i berilganda, audiomatn tinglash vazifa qilinganda samaradorlik sezilarli darajada oshgan. Tajribani sinovdan o‘tkazish jarayonida yana bir nechta usul va g‘oyalar haqida fikr tug‘ilganini ta’kidlash lozim. Zero, ukrainalik o‘qituvchi – novator Viktor Shatalov aytganidek: “O‘qituvchi faqat ta’lim berish bilan o‘qituvchi emas, o‘quvchilarining bilimni

o‘zlashtirayotganini his qiladigan o‘qituvchi o‘qituvchidir”. Shunday ekan pedagoglar millatning kelajagi haqida, uning ma’naviyati haqida jon kuydirishlari lozim. Ko‘p sonli ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari o‘zlari ish olib borayotgan auditoriyada kitobxonlik muhitini yaratishga harakat qilishsa, nur ustiga nur bo‘lardi. Shundagina yurtimizning rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishida ozmi-ko‘pmi hissamizni qo‘shgan hisoblanamiz. Zotan, taniqli yozuvchi Xudoyberdi To‘xtaboyev: “Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda kitobxonlik fan darajasiga ko‘tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ‘ib qilishgina emas, balki kitob o‘qishni, o‘qiladigan kitobni tanlay olishni, mag‘zini chaqishni, ya’ni kitob yordamida o‘zini anglashni o‘rgatish hamdir”, – deganda haq gapni aytgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.foziljonov.uz H. Foziljonov. Blogerlik – dunyodagi eng yaxshi kasb(mi?). 2014-yil 27.01
2. O‘.Hoshimov. Tanlangan asarlar. – Ilm-ziyo-zakovat. T.: 2019
3. P.Qodirov. Yulduzli tunlar. – Yangi asr avlodi. T.: 2016
4. S.Ahmad. Jimjitlik. – Asaxy books. T.: 2023
5. D.Defo. Robinzon Kruzo. – O‘qituvchi. T.: 2017
6. A.Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Yoshlar matbuoti. T.: 2022
7. O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Sharq. T.: 2012
8. O.Yoqubov. Ko‘hna dunyo. – O‘qituvchi. T.: 2017
9. A.Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Yangi asr avlodi. T.: 2022
10. O‘.Hosimov. Tushda kechgan umrlar. – Sharq. T.: 2012